(9). Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008, 48-bet.
(10). Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004, 100-bet.
(11). Usmon Nosir. Yurak, sensan mening so‘zim. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2018, 3-bet.
(12). Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, “Kamalak”, 2016, 121-bet.
(13). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

Xojamuratov Ramil Ibraximovich (Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

IBRAYIM YUSUPOVNING «BERDAQQA» SHE’RIDA TARIXIY SHAXS OBRAZINING LINGVOPOETIK MODELLASHUVI VA INGLIZCHA TARJIMADA QAYTA YARATILISHI

Annotatsiya. *Maqolada Ibroyim Yusupovning “Berdaqqa” she’rida tarixiy shaxs obrazini shakllantiruvchi leksik-semantik, metaforik-predikativ, sintaktik va matniy mexanizmlar o‘rganildi. She’rning qoraqalpoqcha asliyati R.Rzayeva amalga oshirgan inglizcha tarjima bilan qiyoslandi. Tahlil natijasida Berdaq obrazi alohida portret belgisi orqali emas, balki qo‘shiq, yirtiq uy, to‘rg‘ay, qaldirg‘och, Prometey va Bayron kabi mikrobrazlarning yagona semantik markazga birlashishi asosida yaratilgani aniqlandi. “Sen qosıqsań” konstruksiyasidagi metaforik identifikatsiya “shoir-qo‘shiq” konseptual modelini hosil qilishi asoslandi. Inglizcha tarjimada metaforik yadro saqlangan bo‘lsa-da, eksplikatsiya, me’yorlashtirish, konkretlashtirish, semantik torayish va harakat dinamikasining neytrallashishi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar: *Ibroyim Yusupov, Berdaq, lingvopoetika, poetik obraz, tarixiy shaxs, metaforik predikatsiya, mikrobraz, makroobraz, semantik deviatsiya, inglizcha tarjima.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В СТИХОТВОРЕНИИ ИБРАИМА ЮСУПОВА «БЕРДАККА» И ЕГО РЕКОНСТРУКЦИЯ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ.

Аннотация. *В статье исследуются лексико-семантические, метафорико-предикативные, синтаксические и текстовые механизмы формирования образа исторической личности в стихотворении Иброима Юсупова «Бердак». Оригинальная каракалпакская версия стихотворения сравнивается с английским переводом Р.Рзаевой. В результате анализа установлено, что образ Бердака создан не посредством отдельного портретного знака, а на основе интеграции микрообразов, таких как песня, юрта, воробей, ласточка, Прометей и Байрон, в единый семантический центр. Доказано, что метафорическая идентификация в конструкции «Sen qosıqsań» формирует концептуальную модель «поэт – песня». Хотя метафорическое ядро сохранено в английском переводе, наблюдаются экспликация, нормализация, конкретизация, семантическое сужение и нейтрализация динамики движения.*

Ключевые слова: *Ибраим Юсупов, Бердак, лингвопоэтика, поэтический образ, историческая личность, метафорическое предикирование, микрообраз, макрообраз, семантическое отклонение, английский перевод.*

LINGUAPOETIC MODELING OF THE IMAGE OF A HISTORICAL PERSON IN IBRAIYM YUSUPOV’S POEM "BERDAQ" AND RECONSTRUCTION IN ENGLISH TRANSLATION

Annotation. *The article examines the lexical-semantic, metaphorical-predicative, syntactic and textual mechanisms involved in constructing the image of a historical personality in Ibrayim Yusupov’s poem “To Berdakh”. The Karakalpak original is compared with R. Rzayeva’s English translation. The analysis demonstrates that the poetic image of Berdakh is formed not through a single portrait feature but through the semantic integration of such micro-images as song, a dilapidated house, a lark, a swallow, Prometheus and Byron. The construction “Sen qosıqsań” establishes a metaphorical identification and produces the conceptual model poet is song. Although the central metaphor is retained in translation, the English version displays explicitation, normalisation, specification, semantic narrowing and neutralisation of verbal dynamics.*

Keywords: *Ibrayim Yusupov, Berdakh, linguopoetics, poetic image, historical personality, metaphorical predication, micro-image, macro-image, semantic deviation, English translation.*

Kirish. Bugungi kunda jahon filologiyasida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganish, undagi tarixiy shaxs obrazining til va uslub vositalari orqali shakllanish xususiyatlarini aniqlash hamda bunday obrazlarning tarjima jarayonida qayta yaratilishini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisobla-

nadi. Ayniqsa, milliy adabiyot namunalari tarkibidagi tarixiy-madaniy mazmun, poetik tasvir vositalari va muallifning individual uslubini boshqa tilga to‘laqonli ko‘chirish masalasi lingvopoetika va tarjimashunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’rida tarixiy shaxs obrazi qanday lingvopoetik vositalar orqali modellashtirilgani hamda ushbu obrazning ingliz tilidagi tarjimada qayta yaratilish xususiyatlarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’ri qoraqalpoq xalqining buyuk mutafakkiri va mumtoz shoiri Berdaq siymosini yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan asarlardan biridir. She’rda tarixiy shaxs obrazi metafora, epitet, ramziy birliklar, poetik tasvir vositalari hamda milliy-madaniy konseptlar orqali shakllantirilgan bo‘lib, ular muallifning estetik qarashlari va milliy tafakkurini ifodalaydi. Bunday poetik birliklarning ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonida ularning semantik mazmuni, badiiy ta’sirchanligi va milliy koloritini saqlab qolish tarjimon oldidagi murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli original matn va uning inglizcha tarjimasini qiyosiy tahlil qilish tarixiy shaxs obrazining qayta yaratilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi Ibroyim Yusupovning «Berdaqqa» she’rida tarixiy shaxs obrazining lingvopoetik modellashuvini hamda uning inglizcha tarjimada qayta yaratilish xususiyatlarini qiyosiy-filologik tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida lingvopoetik, semantik, stilistik, kontekstual va qiyosiy-tarjimashunoslik metodlari asosida she’rning original va tarjima matnlari tahlil qilinib, tarixiy shaxs obrazini shakllantiruvchi poetik vositalarning funksional xususiyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari lingvopoetika, tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalaridagi ilmiy izlanishlarni yangi nazariy qarashlar bilan boyitishga, shuningdek, qoraqalpoq adabiy merosini jahon ilmiy va madaniy makonida keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy obrazni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda uni tayyor estetik kategoriya sifatida tavsiflash yetarli emas. Obrazning qaysi nominatsiya, metaforik predikatsiya, grammatik shakl, sintaktik munosabat va matniy aloqa vositasida shakllanganini aniqlash lozim. Lingvopoetik tahlil til birligining faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki muayyan badiiy kontekstdagi estetik faolligi va asar obrazlar tizimida bajaradigan vazifasini ham ochib beradi.

Lingvopoetika lingvostilistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning tadqiq maqsadi to‘liq bir xil emas. Lingvostilistika til vositasining uslubiy bo‘yog‘i va ekspressiv imkoniyatini tavsiflaydi. Lingvopoetika esa mazkur vositaning muayyan asar kompozitsiyasi, muallif pozitsiyasi va obrazlar tizimidagi estetik vazifasini belgilaydi. Binobarin, matnda metafora mavjudligini qayd etish tahlilning boshlang‘ich bosqichi bo‘lsa, uning boshqa til birliklari bilan aloqasi va makroobrazni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash asosiy bosqich hisoblanadi.

V.Y.Zadornova badiiy matnga lingvopoetik yondashuvning o‘ziga xosligi haqida fikr bildirib, “badiiy so‘z” haqida shunday deydi: “Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida matndagi til birliklari va ularning estetik vazifalari o‘ta muhim ahamiyatga ega... Tilning boshqa aspektlarini kamaytirmagan holda shuni aytish mumkinki, badiiy ta’sir kuchi, eng avvalo, so‘zda mujassamlashadi... So‘z butkul rangin va nurli bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi, obrazli fikrlashning quroliga aylanadi” [1;115–116 c.). Olim A.A.Lipgart konsepsiyasida ham til birligining matnda mavjudligini qayd etish emas, balki uning nima uchun tanlangani, boshqa elementlar bilan qanday munosabatga kirishgani va asarning umumiy estetik mazmuniga qanday hissa qo‘shishi muhimdir [2] (Lipgart, 1996).

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida badiiy matnni lingvopo e tik tahlil qilish, tarixiy-adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, qiyosiy tarjimashunoslik tahlili, matnshunoslik tahlili, diskurs tahlili, kontekstual tahlil, obrazlar tizimini kompleks tahlil qilish, shuningdek, dialektik metod, tarixiylik va mantiqiylik birligi, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish, tavsiflash va qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbek tilshunosi D.Xudoyberganova antropotsentrik paradigmada matnni ijtimoiy muloqot shakli va muayyan bilim egasining lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida baholaydi [3] (Xudoyberganova, 2013:5). Ushbu o‘rinda badiiy matnda til birliklari odatiy nominativ va kommunikativ vazifa bilan cheklanmay, muallifning estetik maqsadiga muvofiq qo‘shimcha semantik, emotsional-ekspressiv hamda assotsiativ mazmun kasb etadi. Shuning uchun ularni tadqiq etish til tizimining matnda voqelanish qonuniyatlarini, ijodkor individual uslubini va obrazli tafakkurning lisoniy mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, poetik obrazning leksik-semantik, frazeologik, morfologik, sintaktik va fonopoetik vositalar orqali shakllanishini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganish muhimdir. Bunday tahlil obrazni tayyor estetik hodisa sifatida tavsiflashdan ko‘ra, uni

hosil qilgan nominatsiya, metaforik predikatsiya, semantik valentlik, takror, inversiya va tovush uyg'unligi kabi lisoniy omillarni ochib berishga xizmat qiladi. Natijada badiiy matn til imkoniyatlari ijodiy qayta tashkil etiladigan, milliy dunyoqarash va muallif konsepsiyasi lisoniy shaklga aylanadigan murakkab semiotik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuvda obraz muallifning voqelikni qanday ko'rishi, baholashi va tilda qayta tashkil etishini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Ibroyim Yusupov she'riyatidagi lirik subyektni biografik muallif bilan to'liq tenglashtirish emas, balki til vositalari orqali shakllantirilgan matniy subyekt sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Shuning uchun biz ushbu tadqiqotimizda qoraqalpoq shoiri I.Yusupovning «Berdaqqa» she'rida tarixiy shaxs obrazining lisoniy modellashuvini aniqlash va mazkur obraz komponentlarining inglizcha tarjimada qayta ifodalanish darajasini baholashni maqsad qildik. Tadqiqotda kontekstual, qiyosiy, kognitiv-semantik, valentlik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

She'rning dastlabki misrasi Berdaq obrazining asosiy metaforik modelini belgilaydi:

Sen qosıqsań jırtıq úyde tuwılǵan,

Ash xalıqtıń ármanına juwılǵan.

Sen qosıqsań» konstruksiyasi Berdaq haqidagi tashqi xabar emas, tarixiy shaxsning shoir ongida «xalq qo'shig'i» sifatida qayta konseptuallashuvidir. Badiiy ijod insonning voqelikni hissiy idrok etishi, konseptuallashtirishi va estetik mezonlar asosida qayta modellashtirish shaklidir. San'atda borliq voqea-hodisalarning bevosita nusxasi sifatida emas, balki ijodkorning dunyoqarashi, qadriyatlari va emotsional munosabati bilan uyg'unlashgan badiiy talqin sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda badiiy obraz muallifning ijodiy konsepsiyasini konkret-hissiy shaklga ko'chiruvchi asosiy semantik-estetik vosita vazifasini bajaradi. Obraz vositasida voqelikka xos belgilar saralanadi, qayta ma'nolantiriladi va muayyan g'oyaviy maqsadga bo'ysundiriladi. Natijada matndagi til birliklari odatiy nominativ vazifadan tashqari assotsiativ, baholovchi va emotsional-ekspressiv mazmun kasb etib, muallif pozitsiyasini kitobxonga ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu bois *Sen qosıqsań* konstruksiyasida inson referentini anglatuvchi *sen* olmoshi predmet ma'noli *qosıq* oti bilan ot-kesim munosabatiga kirishadi. Bu to'liq metaforik identifykatsiyani yuzaga keltiradi.

Olim A.I.Fedorov badiiy obrazni voqelikdagi muayyan hodisa yoki faktning ijodkor estetik konsepsiyasi asosida qayta shakllantirilgan ifodasi sifatida talqin qiladi. Obrazda borliq mexanik yoki fotografik tarzda takrorlanmaydi; tasvir obyektiga xos xususiyatlar muallifning g'oyaviy maqsadi va baholovchi munosabatiga muvofiq saralanadi. Ayrim belgilar mazmunan kuchaytiriladi, boshqalari o'zgartiriladi yoki badiiy umumlashtirish doirasida ikkinchi planga o'tkaziladi. Natijada obraz predmetning tashqi ko'rinishini qayd etuvchi vosita emas, balki voqelikni muallif nuqtayi nazaridan konseptuallashtiruvchi semantik-estetik modelga aylanadi. Demak, obrazning badiiy qiymati tasvir obyektiga aynan o'xshashligi bilan emas, ijodkor pozitsiyasini ifodalaydigan belgilarni estetik jihatdan qayta tashkil etishi bilan belgilanadi [4]. Ushbu fikrni shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» she'rida Berdaqning qo'shiq, to'rg'ay, qaldirg'och va Prometey bilan ifodalanishini yagona portretning turli semiotik proyeksiyalari sifatida talqin qilishga imkon beradi.

J.Lakoff va M.Jonson metafora mohiyatini bir turdagi tajribani boshqa tur orqali tushunish deb izohlaydi [5]. Bu nazariyani shoir I.Yusupovning tahlil qilinayotgan «Berdaqqa» she'rida «shoir – qo'shiq» va «Iship miyrim kəsasin» modellarini ajratishga asos bo'ladi. P.Nyumark metaforani so'zdan butun matngacha yoyilishi mumkin bo'lgan ko'chma nominatsiya sifatida ko'radi [6]. Y.Nayda va Ch.Teyber tarjimada ma'no va uslub jihatidan «eng yaqin tabiiy muqobil»ni qayta yaratishni asosiy talab sifatida belgilaydilar [7]. Bu talab frazeologik kalka bilan tabiiy funksional muqobil o'rtasini farqlashda muhim. Natijada Berdaq biografik shaxsdan xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy ovozi darajasiga ko'tariladi.

A.A.Lipgartning «Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика» doktorlik dissertatsiyasi lingvopoetikani nazariy va amaliy jihatdan tizimlashtirgan tadqiqotlardan biridir [8]. Uning konsepsiyasi til birligining mavjudligini qayd etish bilan cheklanmay, birlik nega tanlangani, matnning boshqa elementlari bilan qanday munosabatga kirishgani va asarning umumiy estetik mazmunida qanday vazifa bajarganini aniqlashga yo'naltiradi.

Mazkur yondashuvni uch o'zaro bog'liq tahlil darajasi orqali qo'llash mumkin. Semantik darajada birlikning lug'aviy va kontekstual ma'nolari, konnotatsiyasi hamda assotsiativ imkoniyati aniqlanadi. Metasemiotik darajada odatiy kommunikativ birlikning metafora, ramz, ironiya yoki badiiy detal sifatida qo'shimcha estetik mazmun kasb etishi tekshiriladi. Lingvopoetik darajada esa shu birlikning obrazlar tizimi, muallif pozitsiyasi, kompozitsiya va asarning umumiy g'oyasi bilan munosabati baholanadi. Məselen, shayir I.Yusupovtiń «Berdaqqa» atamasindag'i qosig'inda «Sen qosıqsań» semantik darajada ikkinchi shaxs olmoshi va ot-kesim munosabatidir; metasemiotik darajada insonni qo'shiq bilan to'liq tenglashtiruvchi

metaforik identifikatsiyadir; lingvopoetik darajada Berdaqni xalq ovozi va tarixiy xotira sifatida shakllantiruvchi makroobrazning yadrosidir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda tadqiqotimizda sh oir she'rlarining ingliz tilidagi badiiy tarjimasini tahlilga tortganimizda besh bosqichli mezonlar asosida modelga birlashtirgandik. 1) nominativ bosqichda obrazni atagan birlik; 2) predikativ bosqichda unga yuklangan belgi va harakat; 3) assotsiativ-kognitiv bosqichda milliy va universal ma'nolar; 4) matniy-funksional bosqichda refren, leytmotiv, kulminatsiya va kogeziv vazifa; 5) tarjimaviy bosqichda lug'aviy ma'no, semantik rol, sintaktik pozitsiya, assotsiatsiya va tovush tuzilishining saqlanish darajasi aniqlanadi. Bu model obrazdiң tarjimada saqlangan yoki yo'qolganini umumiy tarzda baholamay, uning qaysi til xususiyati saqlangani va qaysi jihati o'zgarganini aniqlashga yordam beradi.

Misollarga e'tibor beraylik: shoirning «Berdaqqa» she'rida obrazning lisoniy qurilishindag'i metaforik predikatsiyag'a e'tibor berganimizda:

Sen qosıqsa ń jırtıq ú yde tuwılǵan, misrada «Sen qosıqsa ń»da inson referentini bildiruvchi sen olmoshi mavhum-predmet ma'noli qosıq oti bilan ot-kesim munosabatiga kirishgan. O'xshatish ko'rsatkichi kuzatilmaydi. Berdaq shayir qo'shiqqa o'xshatilmaydi, qo'shiqning o'zi deb nomlanadi. Bu to'liq metaforik identifikatsiya bo'lib, «shoir – qo'shiq» konseptual modelini hosil qiladi. Qo'shiq domenidan xalq ovozi bo'lish, xotirada saqlanish, hissiy ta'sir va avlodlararo uzatilish belgilari shoir domeniga ko'chiriladi.

She'rning ingliz tilidagi matnida:

You are a song born in need,
In a decrepit yurta here,
Walking on the snow on bare feet,
There was a clatter of hoofs near,
The song, washed by the people's grief.

You are a song asosiy predikativ modelni saqlaydi. Biroq born in need asliyatda konkret makon orqali anglashiladigan qashshoqlikni oldindan izohlaydi. Natijada obraziy implikatsiya eksplikatsiyaga aylangan. Asliyatda kitobxon jırtıq ú y dan ijtimoiy ahvolni xulosa qilsa, tarjimada need bu ma'noni tayyor holda beradi.

Shuningdek, she'rning ingliz tilidagi tarjimasida jırtıq sifati asosan mato, kiyim yoki qog'oz bilan birikadi. Uning ú y bilan qo'shilishi odatiy leksik valentlikni buzib, uyning xarobligi bilan birga qashshoqlik va himoyasizlikni oldingi planga chiqaradi. Decrepit yurta esa ingliz tilida me'yoriy sifat-ot birikishiga yaqin. Denotativ mazmun saqlansa ham, asliyatdagi kutilmagan birikish estetik faolligini yo'qotadi. Bundan tashqari, umumiy ú y ning yurta bilan konkretlashishi makonni etnografik jihatdan toraytiradi; inglizcha me'yoriy shakl yurt bo'lishi kerak. Yag'niy, әpio'ayi qilip tүsindirgenimizde ao'darmada semantik deviatsiya usili qollanilg'an. Bunda so'zlarning odatiy ma'no yoki birikish qoidasidan ataylab chetga chiqib qo'llanishidir. Bu usul badiiy matnda yangi, ta'sirchan obraz yaratadi. Masalan, I.Yusupovdagi: jırtıq úy – «yirtiq uy» birikmasi odatiy emas. Odatda mato, kiyim yoki qog'oz «yirtiq» bo'ladi, uy esa «eski», «xarob» yoki «buzilgan» deb ta'riflanadi. Shoir «yirtiq uy» deb, qashshoqlik va ayanchli holatni kuchliroq ifodalagan. Bu semantik deviatsiya yesaplanadi. Shuningdek, mutarjim me'yorlashtirish usulidan ham unumli foydalangan. Bunda g'ayriodatiy ifodani tarjimada oddiy va qabul qilingan shakl bilan berilgen. Masalan, inglizcha tarjimada: a decrepit yurt – «xarob o'tov» deb berilgan. Bu ingliz tili uchun tabiiy birikma, lekin asliyatdagi «yirtiq uy»ning g'ayriodatiyligi va obrazli ta'siri biroz kamaygan.

Sherning asliyatida:

Tuwılıwdan ıǵbal izlep xalqına,
Jalań ayaq qardı basıp juwırǵan.

Misralarida juwırǵan fe'li harakatning tezligi, shiddati va maqsadga yo'nalganligini bildiradi. She'rning ingliz tilidagi tarjimasida: Walking on the snow on bare feet qatarinda Walking esa neytral davomiy harakatni anglatadi. Shu bois tarjimada faqat harakat turi emas, qahramon xarakteriga tegishli fidoyilik semasi ham susaygan. Ushbu o'rinda Running barefoot through the snow shakli dinamik obrazga yaqinroq funksional muqobil bo'lar edi. Chunki, she'rda fe'lning aspektual semantikasi, yag'niy, fe'l ifodalagan harakatning qanday kechishini bildiruvchi ma'nosi, ya'ni harakat tez yoki sekin, davomiy yoki qisqa, boshlangan yoki tugallangan, bir marta yoki takroriy ekanini ko'rsatg'an bolsa, Masalan: Jalań ayaq qardı basıp juwırǵan. Bu yerdagi juwırǵan fe'li tezlik, shiddat va faol harakatni ifodalaydi, al inglizcha tarjimada esa: Walking on the snow on bare feet qatarda Walking «yurish» fe'li harakatni sokin va oddiy tarzda ifodalaydi. Shuning uchun tarjimada asliyatdagi tezlik va shiddat ma'nosi pasaygan deyish mumkin.

Shoirning «*Ash xalıqtıń ármanına juwılǵan*» she'r misralarida árman leksemasida qayg'u, amalga oshmagan orzu va kelajakka intilish semalari birlashadi. She'rning ushbu misrasida ingliz tilidagi tarjimasida «The song, washed by the people's grief» qatirindag'i grief esa, asosan, yo'qotishdan kelgan qayg'uni bildiradi. Transformatsiyani á rman: qayg'u+orzu+intilish→ grief: qayg'u ko'rinishida ifodalash mumkin. Al, sorrow and longing juftligi bolsa, semantik maydonni to'liqroq qamrab alar yedi.

Shu bilan birgalikda, shoirning ushbu she'rida mikrobrazlarning makroobrazga o'tish jarayoni kuzatiladi. Msasalan:

Mikrobraz	Faol sema	Berdaq makroobrazidagi vazifa
qo'shiq	xalq ovozi	shoir va xalq xotirasi birligi
yirtiq uy	Qashshoqlik	xalq bilan ijtimoiy birlik
to'rg'ay	tanqis muhitda sayrash	ijodiy sabot
qaldirg'och	oz imkoniyatda yordam	fidoyilik
Prometey olovi	ma'rifat va isyon	ma'naviy jasorat
Bayron	jahoniy shuhrat	milliy qadr va jahon mezoni munosabati

Ya'ni, mikroobrazdan makroobrazga o'tish asardagi kichik obraz va badiiy detallarning birlashib, bitta katta va yaxlit obrazni hosil qilishi yesaplanadi. Bul jerde mikroobraz – muayyan so'z, ibora, o'xshatish yoki kichik badiiy detal orqali yaratilgan obraz yesaplanadi. Al makroobra – asar davomidagi bir nechta mikroobrazlarning birlashishidan hosil bo'lgan umumiy obraz yesaplanadi. Yuqoridagi jadvalda keltirilgani kabi shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» she'rida: «qo'shiq» – Berdaqning xalq ovozi ekanini; «yirtiq uy» – uning qashshoq muhitda ulg'ayganini; «to'rg'ay» – og'ir sharoitda ham ijod qilganini; «qal-dirg'och» – xalqqa fidoyilik bilan xizmat qilganini; «Prometey» – ma'rifat va ozodlik uchun kurashganini anglatadi. Bularning har biri mikroobraz yesaplanip, usilardiń barchasi birlashib, Berdaqning xalqparvar, jasoratli va fidoyi shoir sifatidagi umumiy qiyofasini – makroobrazini yaratadi. Ilimpaz Y.A.Goncharova-ning qahramon obrazini yagona semantik markaz atrofida birlashgan portret, harakat va ichki holatlar maj-muasi sifatida tushuntirishi [10] mazkur tizimni izohlaydi. She'rda sen deyktik markaz, unga bog'langan metaforik predikatlar esa obrazni bosqichma-bosqich yig'uvchi belgilar vazifasini bajaradi.

Shoir I.Yusupovning «Berdaqqa» nomli she'rini ingliz tilidagi tarjimasi bilan qiyyoslaganimizda matnda tarjima transformatsiyalarining lingvistik model id agi tahlil usullari aniqlandi.

Tarjima transformatsiyalari

Lisoniy hodisa	Asliyat	Inglizcha tarjima	Natija
metaforik predikatsiya	Sen qosıqsań	You are a song	konseptual yadro saqlangan
semantik deviatsiya	jırtıq úy	decrepit yurta	me'yorlashtirish yuz bergan
makon nominatsiyasi	úy	yurta	etnografik konkretlashtirish
harakat tarzi	juwırǵan	walking	dinamik sema neytrallashgan
konnotatsiya	árman	grief	orzu va intilish semalari yo'qolgan
implitsit ma'no	jırtıq úy	born in need	ijtimoiy ma'no eksplikatsiya qilingan

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumlashtirib aytganimizda, shoir I. Yusupovning «Berdaqqa» she'rida tarixiy shaxs obrazi alohida metafora yoki portret detali emas, balki nominatsiya, metaforik predikatsiya va mikrobrazlarning matniy munosabatidan tashkil topgan semantik tizimdir. Sen qosıqsań konstruksiyasi Berdaqni xalq ovozi va madaniy xotira sifatida konseptuallashtiruvchi makroobrazning yadrosini hosil qiladi.

Shoirning «Berdaqqa» nomli she'rining inglizcha tarjimasida «shoir – qo'shiq» konseptual modeli saqlangan. Biroq jırtıq ú y ning decrepit yurta bilan berilishi semantik deviatsiyani me'yorlashtirgan; juwırǵan ning walking orqali ifodalanishi harakat dinamikasini susaytirgan; á rman ning grief bilan almashtirilishi esa konnotativ hajmni toraytirgan. Demak, obraz tarjimasini baholashda lug'aviy ma'no bilangina cheklanmasdan, metaforik model, leksik valentlik, harakat tarzi, konnotatsiya va matniy vazifani ham hisobga olish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1992, с. 30. https://cheloveknauka.com/ slovesno-hudozhestvennoe-proizvedenie-na-raznyh-yazykah-kak-predmet-lingvopoeticheskogo-issledovaniya

(2). Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1996, 2 т., 656 с.
https://search.rsl.ru/ru/record/01000145449?utm_source=chatgpt.com

(3). Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент, “Фан”, 2013, 5-бет. https://kutubxona.adpi.uz/preview?filename=120dxudoyberganovamatnningantropotsentriktadkikoti.pdf

(4). Фёдоров А.И. Образная речь. Новосибирск, “Наука”, Сибирское отделение, 1985, 28 с. https://ruslan-neo.nsu.ru/pwb/detail?db=BOOKS&id=RU%5CNSU%5Cbooks%5C10279

(5). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago; London: University of Chicago Press, 1980, p. 5. https://cs.uwaterloo.ca/~jhoey/teaching/cs886-affect/papers/LakoffJohnsonMetaphorsWeLiveBy.pdf

(6). Newmark P.A Textbook of Translation. New York; London, Prentice Hall, 1988, p.104. https:// ru. scribd. com/document/975142435/A-textbook-of-translation-Peter-Newmark-Z-Library-1

(7). Nida E.A., Taber Ch.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J. Brill, 1969, p. 12. https://books.google.co.uz/books/about/The_theory_and_practice_of_Biblical_tran.html?id=jPIeAAAAIAAJ&redir_esc=y

(8). Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1996, 236 с.

(9). Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода: лирика каракалпакского поэта И.Юсупова: учебно-методическое пособие, Нукус, 2015, с. 25. https://ndpi.uz/uz

(10). Гончарова Е.А. Когнитивно-коммуникативные параметры ситуации порождения, восприятия и интерпретации литературного текста. Язык. Текст. Культура: Studia Linguistica. Вып. XVI. Санкт-Петербург, 2007, с. 87. https://ephil.herzen.spb.ru/wp-content/uploads/2009/05/studia-16.pdf

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti (PhD); qodirovamarifat@gmail.com);
Fayzullayeva Yulduz (1-bosqich talabasi; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

JAMIYATDAGI MA’NAVIY INQIROZ VA INSON RUHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Ibodinovning “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi, asarning badiiy-falsafiy mohiyati, qahramonlardagi ruhiy o‘zgarishlar, jamiyatning ma’naviy inqiroziga sabab bo‘luvchi illatlar tahlil qilinadi. Muallif qissada “qatl” tushunchasi orqali faqatgina jismoniy o‘limni emas, balki ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, jamiyatdagi axloqiy tanazzulni, inson tuyg‘ularining so‘nishi va shaxsning ichki dunyosida yuz beradigan ziddiyatlarni aks ettiradi. Qolaversa, qahramonning ichki kechinmalari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-maishiy muammolar o‘rtaga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar*: qissa, qahramon, qatl, qadriyat, ruhiyat, psixologiya, ijtimoiy muammo.*

Кодирова Марифат Абдуллаевна (доцент кафедры “Литература периода независимости и литературоведение” Института языков и культуры народов Центральной Азии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (кандидат наук); qodirovamarifat@gmail.com),
Файзуллаева Юлдуз (студентка 1 курса; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

ДУХОВНЫЙ КРИЗИС В ОБЩЕСТВЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется повесть Алишера Ибодинова «Убийство в магазине “Латофат”, её художественно-философская сущность, духовно-психологические изменения героев, а также факторы, способствующие нравственному кризису общества. Посредством понятия “убийство” автор раскрывает не только физическую смерть, но и разрушение духовных ценностей, нравственный упадок общества, угасание человеческих чувств и внутренние противоречия личности. Кроме того, через внутренние переживания героев освещаются актуальные социально-бытовые проблемы современного общества.*

Ключевые слова*: повесть, герой, убийство, ценности, духовность, психология, социальные проблемы.*

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Assistant Professor of the Department of “Literature of the Independence Period and Literary Theory” of the Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Samarkand State University named after Sharof Rashidov (PhD); qodirovamarifat@gmail.com),
Fayzullayeva Yulduz (1st year student; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

THE SPIRITUAL CRISIS IN SOCIETY AND THE HUMAN SPIRIT

Annotation. *This article analyzes Alisher Ibodinov’s novella “The Murder in Latofat’s Shop”, focusing on its artistic and philosophical essence, the psychological transformations of the characters, and the factors contributing to the spiritual crisis of society. Through the concept of “murder”, the author depicts not only physical death but also the destruction of moral values, ethical decline, the fading of human emotions, and the inner conflicts experienced by individuals. Furthermore, the protagonist’s inner experiences serve to reveal the social and everyday problems existing within society.*

Keywords*: novella, protagonist, murder, values, spirituality, psychology, social issues.*